

*Muhayyo ABDURAHMONOVA*  
*TDSHU Jamubiy Osiyo tillari va adabiyoti*  
*oliy maktabi professori, filologiya fanlari nomzodi*

### “USTAD JI” KIM DESANGIZ...

Hammamiz suyib, ustad ji deb chaqirgan Hazrati inson – urdu tili ning daqiq bilimdoni marhum Rahmonberdi Muhammadjonov domlamiz qanday jim, sokin, atrofdan zarracha hurmat-e’tibor kutmay yashagan bo’lsalar, oramizdan ana shunday jimgina ketganlariga chorak asrdan ortiq vaqt o’tibdi.

Ustozni talabalik yillarimdan – 1-kursdan to vafotlarigacha bitta kulrang kostyumda ko’rganman. Ular oddiy yashashni, oddiylikni yaxshi ko‘rar edilar. “Obro’ qozonishning eng halol yo‘li – mehnat va kamtarlik” deb bilganlari uchun o‘zlarini ayamas, ayni paytda mehnatdan bo‘yin tovlaydigan takasaltanglarga o‘ta shafqatsiz edilar. Ilmlaridan tortib, fe’l-atvorlarigacha hammamiz uchun dasturil-amal edilar.

Oriq, qotma jussalari bor edi, shu oriqqina, qotma jussa ichida shernikidan, arslonnikidan-da katta yurak bor edi. Haq so‘zni aytishda hech narsadan tap tortmaydigan odil inson edilar. Laganbardorlik va ta’magirlilikni ko‘rsalar, «yonib» ketardilar. So‘ziga yolg‘onni qo’shgan talabani yomon ko‘rardilar. Bundaylar bilan sira murosa qila olmas edilar.

Ustozning jonajon do‘sti, birgalikda qator tarjimalarni nashr qilgan Dehli universiteti professori marhum Qamar Rayis yozadi – “Rahmonberdi butun vujudini berib, jon kuydirib dars o‘tar edi. Bunda unga yetadigani yo‘q edi. Xuddi shu darajada qattiqqo’llik va shafqatsizlik bilan talabalarni imtihon qilar edi. Bunday qattiqqo’ll o‘qituvchini butun Sharq fakultetida ko‘rmaganman. Ba’zi bo‘sh talabalarga-ku 3 yillab bahosini qo‘ymas edi.

Kazo-kazolardan birining taltaygan o‘g‘li ...<sup>1</sup> ham urdu tili imtihonidan 3-marta o‘ta olmadi. Rahmonberdi unga “2”dan ortiq baho qo‘ymas edi. Kunlardan bir kuni yigitcha meni va oilamni mashinasida Toshkent shahridan tashqaridagi uyiga olib bordi. Ichkari kirdik - katta bog‘ o‘rtasidan Chirchiq shovillab oqyapti. Hovlining bir tomoni yam-yashil tepalikka tutashgan. Yigitchaning onasi, opa-ukalari suyunib kutib olishdi. Ayolim bilan maza qilib bog‘ etagidagi mevalardan uzib yedik. Dasturxonga taomlar birin-ketin kelaverdi. Ziyofat kechgacha davom etdi. Shom payti yigitcha qisinib-qimtinib, “Ustozga aytib ko‘ring, meni har yili imtihondan yiqityaptilar, siz aytsangiz, yo‘q demaydilar” dedi. Men iltimos qilishga va’da berdim. Bir-ikki kundan keyin Rahmonberdiga yorilib, “3”

<sup>1</sup> Talabanining ismi-sharifini keltirmaslikni o‘rinli bildik.

“cho’zing, muslimon, cho’zing” degan so’z misoli quyoshli kunda yashin chaqqandek gumburlar edi. Talabaning talassuzini eshitib turib, past ovozda shu so’zni shundayligicha xirgoyi qilsalar, ana bu kuchli dovulning kelishidan darak edi.

Qaddilari, yelkalari biroz oldinga egik edi. Ammo nohaqlik, noto’g’ri ish oldida also bo’yin egmasdilar. Talabaning bilimiga, faqat bilimiga yarasha baho qo’yardilar, umrlarinining oxiriga qadar bundan boshqacha yo’l tutmadilar.

Yillar o’tdi. Nohaqlikka chiday olmaydigan, o’ziga ham, o’zgalarga ham o’ta talabchan ustoz ishdan bo’shash haqida ariza yozdilar. Ariza qondirildi – ustoz uyda qoldilar. Tez orada bedavo kasalga chalingach, umr poyoniga yetdi.

Universitetimizning urdushunoslar faoliyat yuritayotgan 3-qavatidagi mo’jazgina xona ustozning nomi bilan ataladi. Hali xonaga kirmasingizdan sizni o’tkir nigoh kutib oladi. Xonaning o’ng tomonida devorga ul zot bir umr qalbini, mehnatini, qo’yingki, umrini baxshida qilgan sohaning nomi – اردو naqshlangan. Uning atrofida ustozning serqirra, sermashaqqat faoliyatining in’ikosi bo’lgan suratlar joy olgan. Har kuni shu lavhalarga ko’zim tushganida ularning M.G’olib g’azalidan o’zları tarjima qilgan, bot-bot aytib yuradigan baytlari esimga tushadi –

“Hech kimsaning ko’nglida menga zarracha joy yo’q,  
yaxshi g’azalman, ammo quloqlardan uzoqman” ....

Eslaymanu, o’sha zahoti xayolan bu so’zlarga qarshi chiqaman.

30 yildan ortiq vaqt mobaynida mehnatu riyozat chekib yozilgan “Urdu tili darsligi”, Pokiston hukumati yuksak baholagan Mir Alisher Navoiyning urducha g’azallar tarjimasi, qator hind adiblarining insonparvarlik g’oyalari bilan yo’g’rilgan hikoyayu romanlarining o’zbek tilidagi tarjimalari, zar qadrini bilgan zargarday qunt bilan ishlab, so’zning duru javohirlarini tanlab yaratilgan ko’rkam san’at obidasi bo’lmish M. G’olib g’azallarining bir necha o’zbekcha nashrlari – bu ilmiy-adabiy meros ustoz Rahmonberdi Muhammadjonovdan urdu-hindiyni o’rgangan, manglayi yarqiragan shogirdlariyu, ustad jini ko’rmagan bo’lsa-da, ammo ular qoldirgan ma’naviy boylikdan bahramand bo’lib kelayotgan necha-necha avlodlar ko’nglidan joy olib, ularning shu’uru-zehniyatida toabad yashaydi.